



TA'LIM SIFATIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.

Sabdenova Kamila

*Alfraganus Universiteti Pedagogika fakultet Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-kurs
talabasi*

Annotation. Bolalar mehnatining dolzarbligi va uning salbiy oqibatlari. Bolalarni mehnatdan himoya qilishning xalqaro va milliy asoslari. Jamiyatning ushbu masalalarga nisbatan ma'sulyati va kelajak avlodning huquqlarini himoya qilish zaruriyati.

Tayanch so'zlar: Sifatli ta'lim, insoniy qadriyatlar, inson huquqlari, ijtimoiy muomala, majburiy mehnat, ma'naviy va an'anaviy omillar.

Kirish. mehnat nima, ta'lim nima, inson huquqlari
Bolalarni erta mehnatga jalb qilishning bir necha asosiy sabablari mavjud:

1.Ijtimoiy-iqtisodiy yetishmovchilik. Bolaning oilasidagi iqtisodiy yetishmovchilik, bunda bola o'z oilasiga moddiy yordam berish maqsadi, ilm olish masadidan yuqori turadi. Asosiy e'tibor yasash uchun qulay shart – sharoit yaratishga qaratiladi.

2.Ta'lim imkoniyatlarining yetishmasligi. ba'zi hududlarda maktablar aholi soni kamligi va undagi kadrlarning yetishmovchili tufayli 2 va undan ortiq qishloqlar uchun bitta maktab qurilishi. Bu aholiga sifatli ta'lim olish va mакtabga borish imkoniyatini keskin kamaytiradi. Kelib chiqqan noqulayliklar tufayli bolada ta'lim olishdan mehnat qilish foydali deb notog'ri firk yuritishiga oli keladi.

3.Madaniy va an'anaviy omillar. Bunda bolalarning mehnat qilishga jalb etish ularning oilasidan boshlanadi. Oilada shaxsiy biznes yoki oilaviy hunar bilan shug'ullanilsa, bola ham kichik yoshidan mehnatga yo'naltiriladi va bu bolaning ota-onasi va yaqinlari nigohida tog'ri deb hisoblanadi.



4.Qonunchilik va nazoratning zaifligi. Bolalarning mehnat qilishiga qarshi fikr yuritishga asoslangan qonun qoidalar yetarlicha lekin uni amalda qo'llash doim ham amalda o'z aksini topmaydi. Shu tariqa bolalarning huquqlari himoya qilinmaydi. Keltirilgan omillar tufayli bola sifatli ta'lim olish huquqidan mahrum bo'lib, sifatli ta'lim olishga imkon yaratmaydi.

Yuqoridagi muamolarni bartaraf etish uchun mahalla maktab va yirik tashkilotlarda tashkiliy tashviqot tadbirlari o'tkazilishi ijobjiy samara olib keladi.

Xalqaro olimlar va buyuk insonlarning «Bolalarning erta yoshdagi mehnatiga qarshi bo'lgan fikrlari va asoslari.

Tarixchi E.P.Thomson « Angliya ishchilar sinfi shakllanishi» asarida (1963) Bolalar o‘z salomatliklari, bilim olish va ijtimoiylashish imkoniyatlaridan mahrum qilinganda, jamiyatning kelajagi xavf ostida qoladi, bolalarda asosan e'tiborimizni ularning salomatligiga qaratishimiz, davlatning kelajagi sog'lom farzandlar qo'lida ekanini bizga tushuntirmoqchi bo'lyapti [1].

Jane Addams – Bolalar mehnatiga qarshi faol kurashgan ijtimoiy islohotchi va feministik yetakchi. U «Twenty Years at Hull-House» asarida bolalar mehnatining insoniy rivojlanishga salbiy ta'sirini tasvirlagan. Bolalar hayotining ilk yillarda mehnatga jalb qilinishlari ularni o‘z qobiliyatlarini rivojlantirishdan mahrum qiladi va jamiyat uchun yaroqsiz kishilarga aylantiradi [2]. Jamiyatga yaroqsiz insonlar, shu jamiyatga zarar yetkazishi mumkinligini e'tiborga olingan. Biz necha yoshda bo'lishimizdan qat'iy nazar, biz o'z jamiyatimizga foydali shaxs bo'lib yetishib chiqishimiz kerak.

Al-Farobiyning «Fozil odamlar shahrida» bolalar mehnati masalasiga yondashuvi ulardan mehnat qilish o‘rniga ta'lim va tarbiya olishlarini talab qiladi. Uning fikrlariga ko‘ra, bolalar mehnati nafaqat individual rivojlanishga, balki butun jamiyatning taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko‘rsatadi. Bu asar, o‘z vaqtida bolalar mehnatiga qarshi bir nazar sifatida qabul qilinishi mumkin va hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi. [3,]



Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan 1997 yilda Amsterdam va Osloda bo'lib o'tgan konferensiyada 12- iyun «Butunjahon bolalar mehnatiga qarshi kurash kuni» deb qabul qilingan.

BMT Bosh Assambleyasi 2021-yilni Bola mehnatiga qarshi kurashish yili deb e'lon qildi.

2021-yilda BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashining 46-sessiyasida majburiy va bolalar mehnatiga barham berish ustuvorligini yana bir bor ta'kidladi. Yana bit qator bola mehnatiga qarshi va uni barham etish haqidagi qonun qoidalar mavjud. Bu avvalo bolaning huquqlarini ta'minlaydi. Va majburiy mehnat qildirishdab saqlaydi.

Barcha ma'lumotlarni hisobga olgan holda, quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin: Bolani erta mehnatga jalb qilmaslik, jamiyatga sog'lom va davlat rivojlanishiga xissa qo'shuvchi va unga hizmat qiluvchi shaxslarni yetishtirib chiqarishga yordam beradi. Asosiy e'tiborni bola sifatli ta'lim olishiga va sog'lom bo'lishiga qaratish, jamiyatga yetuk insonlarni va ularning davlat ravnaqiga hissa qo'shishiga olib keladi. Bilimli bola jinoyatdan yiroq bo'ladi va erta o'lim va noxush hodisalarning kelib chiqishini oldini oladi.

Sifatli ta'lim — bu o'quvchilarga yuqori darajadagi bilim, ko'nikma va qadriyatlarni shakllantirishni maqsad qilgan ta'lim jarayonidir. Bu turdagи ta'lim o'quvchilarni nafaqat ma'lum bir fan bo'yicha o'rgatish, balki ularni keng qamrovli fikrlashga, ijodiy va tanqidiy yondashishga, mustaqil bilim olishga o'rgatadi. O'zbekiston Respublikasida sifatli ta'limni rivojlantirish uchun bir qancha takliflar berilishi mumkin.

1. O'qituvchilarni muntazam ravishda qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslariga jalb etish.
- 2.Ta'lim muassasalarini zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlash, masalan, kompyuterlar, projektorlar, interaktiv doskalar va boshqa texnik vositalar.



- 3.Dars dasturlarini zamonaviy talablarga mos ravishda yangilash, fanlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni oshirish va o‘quvchilarni ijodiy fikrlashga undaydigan materiallarni qo‘shish
- 4.Har bir o‘quvchining qobiliyati va ehtiyojlariga mos ravishda yondashuvlarni shakllantirish. Individual ta’lim rejalarini ishlab chiqish orqali o‘quvchilarning kuchli tomonlarini rivojlantirish va kamchiliklarini to‘ldirish.
- 5.Ota-onalarni ta’lim jarayoniga faol jalg qilish, ularning ta’lim sifatini oshirishga bo‘lgan roli haqida ko‘proq ma'lumot berish. Ota-onalar bilan muntazam uchrashuvlar, seminarlar va ma'ruzalar tashkil etish.
- 6.O‘zbekiston ta’lim tizimini xalqaro tajribalar bilan boyitish, xorijiy o‘qituvchilarni jalg qilish va xalqaro ta’lim dasturlarini joriy qilish. Jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni hal qilish mumkin. Jamiyatda bilim olishga yo‘naltirilgan e’tibor, bolalarni jinoyatga yo‘l qo‘ymaslikka, va yaxshiroq kelajak uchun tayyorlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.E.P.Thomson. Angliya ishchilar sinfi shakllanishi. Angliya. 1963 y. 848 b.
2. Jane Adams. Twenty years at Hull- House. New York .1910 y. 462 b.
- 3.Al-Farobi. Fozil odamlar shahri. Toshkent. 2021 y. 186 b.
- 3.Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi Xalqaro shartnomalarni implementatsiya qilish bo'limi boshlig'ining « O'zbekiston bolalar mehnatini bartaraf etish bo'yicha muhim natijalarga erishdi» mavzusi 2020 yilda « Yangi O'zbekiston» va « Pravda Vastoka» gazetasi tahririysi nashridan.